<b>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</b>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services .....	932
<b>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</b>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students .....	935
<b>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</b>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health .....	938
<b>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar .....	941
<b>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</b>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari .....	945
<b>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</b>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari .....	948
<b>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</b>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil .....	952
<b>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</b>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf? .....	960
<b>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</b>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar ....	963
<b>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</b>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<b>Almatova Umida Islomovna</b>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<b>Nosirova Shohista Elmurodovna</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<b>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</b>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish .....	987
<b>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</b>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<b>Sh. D. Ablakulov</b>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida) .....	995
<b>Ismoilov Bobur Toxirovich</b>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<b>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari .....	1005
<b>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</b>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<b>Ismailov Murodulla Kahramonovich</b>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<b>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</b>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish .....	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi .....	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv .....	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari .....	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish .....	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari .....	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati .....	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi .....	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortojiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari .....	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati .....	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi .....	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni .....	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida .....	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri .....	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish .....	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish .....	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
<b>Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li</b>	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida .....	1130
<b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi .....	1135
<b>Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna</b>	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari .....	1139
<b>Yunusova Feruza Maxamadolim qizi</b>	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari .....	1143
<b>Hasanova Gulmira Hoshimjanovna</b>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
<b>Alxiyeva Sitora Raximqul qizi</b>	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari .....	1150
<b>Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich</b>	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi .....	1155
<b>Bomurodov Sanjar Bekmurodovich</b>	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
<b>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</b>	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish .....	1163
<b>Menlibayeva Azima Oralbayevna</b>	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
<b>Nuritdinova Xurshida Narpulatovna</b>	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari .....	1169
<b>Sattorova Mohira</b>	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends .....	1172
<b>Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli</b>	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati .....	1176
<b>Tolipova Noilaxon Nodir qizi</b>	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish .....	1183
<b>Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboeva Navbahor Faxriddinov</b>	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari .....	1186
<b>Xaqberdiyeva Sh. T.</b>	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
<b>Yusupov Lutfullo Sayitturayevich</b>	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
<b>Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna</b>	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish .....	1201
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi</b>	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	1204
<b>Astanakulova Manzura Buribayevna</b>	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	1209
<b>Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna</b>	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari .....	1212
<b>Islomov Eldor Yusupovich</b>	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish.....	1215
<b>Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi</b>	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык .....	1220
<b>Марупова Дилфуза Давроновна</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish ..... 1226  <a href="#">Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</a></p> <p>Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediyar ..... 1231  <a href="#">Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</a></p> <p>Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish ..... 1236  <a href="#">Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</a></p> <p>Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий ..... 1239  <a href="#">Имомов Сирожиддин Илхомович</a></p> <p>Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках ..... 1244  <a href="#">Оринов Облакул Жумаевич</a></p> <p>Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития ..... 1248  <a href="#">Ачилов Ойбек Хакимович</a></p> <p>O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari ..... 1252  <a href="#">Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyoxon Zokirjon qizi</a></p> <p>Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish ..... 1257  <a href="#">Saidov Usmon Bahron o'g'li</a></p> <p>Современные методы устранения заикания у подростков ..... 1260  <a href="#">Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</a></p> <p>O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 1264  <a href="#">Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</a></p> <p>Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari ..... 1268  <a href="#">Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</a></p> <p>Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri ..... 1274  <a href="#">Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</a></p> <p>Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish ..... 1277  <a href="#">Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</a></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish ..... 1282  <a href="#">Artikova Nargiz Shuxratovna</a></p> <p>Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari ..... 1286  <a href="#">Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</a></p> <p>O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari ..... 1289  <a href="#">Begmatova Nasiba Safarbayevna</a></p> <p>Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi ..... 1293  <a href="#">Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</a></p> <p>Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni ..... 1296  <a href="#">Burxonova Guyoxon Gulomovna</a></p> <p>Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish ..... 1300  <a href="#">Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</a></p> <p>Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari ..... 1304  <a href="#">Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</a></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari ..... 1307  <a href="#">Karimov Ravshanbek Rizomatovich</a></p> <p>Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts ..... 1312  <a href="#">Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</a></p> <p>Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari ..... 1315  <a href="#">Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</a></p> <p>Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati ..... 1319  <a href="#">Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</a></p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari ..... 1323  <a href="#">Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</a></p>
-------------------------------	--



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English .....	1326
<i>Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari .....	1329
<i>Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna</i>	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism .....	1334
<i>Nomanova Ma'rifat Abdillayevna</i>	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari .....	1337
<i>Olimova Fotima Botirovna</i>	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida).....	1341
<i>Omonqulova Dildora Xusniddin qizi</i>	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish .....	1348
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish .....	1351
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida) .....	1355
<i>Salomov Ilhom Salimovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish .....	1359
<i>Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna</i>	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	1362
<i>Sobirova Mashxura Ubaydullayevna</i>	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi .....	1365
<i>Sodiqova Nigora Turayevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi .....	1368
<i>Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi</i>	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari.....	1371
<i>Teshayev Sobit Sodik o'g'li</i>	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi .....	1374
<i>Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi.....	1377
<i>Xakimov Saydullo Tulanboyevich</i>	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	1380
<i>D. A. Xodjimatoeva</i>	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati .....	1385
<i>Zafar Xudaykulov</i>	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish .....	1388
<i>Yusupova Munisa</i>	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	1391
<i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida .....	1395
<i>Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi</i>	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов.....	1398
<i>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</i>	



# KURASH SPORT TURINING TEXNIK-TAKTIK RIVOJLANISHI VA UNING JISMONIY TARBIYADAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi

Farg'ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti  
Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi kafedresi, PhD

Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi

Talaba

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimidagi pedagogik, ma'naviy va innovatsion ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Kurashning texnik-taktik xususiyatlari, sportchilar tayyorgarligining psixologik, jismoniy va metodik komponentlari, shuningdek mashg'ulot jarayonini takomillashtirishning metodologik asoslari chuqur o'rganilgan. Pedagogik eksperiment natijalariga ko'ra, yosh kurashchilarda kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va texnik mahoratning rivojlanish dinamikasi aniqlangan. Maqolada Kurashning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Kurashni o'qitish metodikasini takomillashtirish, murabbiylar faoliyatini ilmiy asoslash hamda sportchilar tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** kurash, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, psixologik tayyorlik, pedagogik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, sport metodikasi, mashg'ulot jarayoni, chaqqonlik, koordinatsiya.

**Abstract:** This article presents a scientific analysis of the pedagogical, ethical, and innovative significance of Kurash, the national wrestling sport, within the physical education system. The study thoroughly examines the technical and tactical features of Kurash, the psychological, physical, and methodological components of athletes' preparation, as well as the methodological foundations for improving the training process. Based on a pedagogical experiment, the dynamics of strength, agility, coordination, and technical proficiency development among young wrestlers were assessed. The article highlights not only the educational value of Kurash but also the effectiveness of modern pedagogical technologies and innovative approaches. The research findings include practical recommendations aimed at enhancing Kurash teaching methodology, scientifically substantiating coaching practices, and optimizing athletes' training preparation.

**Key words:** kurash, technical-tactical preparation, physical education, psychological readiness, pedagogical approach, innovative technologies, sports methodology, training process, agility, coordination.

**Аннотация:** В данной статье представлен научный анализ педагогического, нравственного и инновационного значения национального вида спорта Кураш в системе физического воспитания. В ходе исследования подробно изучены технические и тактические особенности Кураша, психологические, физические и методические компоненты подготовки спортсменов, а также методологические основы совершенствования тренировочного процесса. На основе педагогического эксперимента выявлена динамика развития силы, ловкости, координации и технического мастерства у юных борцов. Статья освещает не только воспитательный потенциал Кураша, но и эффективность современных педагогических технологий и инновационных подходов. Результаты исследования включают практические рекомендации, направленные на совершенствование методики преподавания Кураша, научное обоснование деятельности тренеров и оптимизацию подготовки спортсменов.

**Ключевые слова:** кураш, техническая и тактическая подготовка, физическое воспитание, психологическая готовность, педагогический подход, инновационные технологии, спортивная методика, тренировочный процесс, ловкость, координация.

## KIRISH

Kurash O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analari va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan noyob milliy sport turi bo'lib, u o'zining tarbiyaviy, jismoniy va ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Kurashning rivojlanishida tub burilish yuz berdi: milliy sport turi xalqaro maydonga ko'tarildi, Jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari, Sharq o'yinlari kabi nufuzli musobaqalarga kiritildi, 2022 yilda

esa Kurash Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan Osiyo o'yinlari dasturiga rasman qayta tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan milliy sport turlarini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator qarorlar bu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qaror, "Kurash sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4822-son qaror, shuningdek, "Yoshlar siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" mazkur sport turining davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi. Bu qarorlar Kurashni jismoniy tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirib, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida ushbu sport turini o'qitish metodikasini takomillashtirish, murabbiylar malakasini oshirish va yosh avlod orasida ommalashtirishga keng imkoniyat yaratdi.

Kurash mashg'ulotlari yosh sportchilarni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ularda chidamlilik, kuch, chaqqonlik, egiluvchanlik, koordinatsiya kabi funksional sifatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu sport turi irodaviy tayyorgarlikni mustahkamlaydi, matonat, sabr, o'zini boshqarish, raqibga hurmat, adolat, halollik kabi axloqiy fazilatlarni singdiradi. Bugungi kunda Kurashning jismoniy tarbiya tizimidagi o'rnini shundaki, u yosh avlodning ma'naviy barkamolligini shakllantirishda, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda, sog'lom avlodni tarbiyalashda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lishi – davlatimiz taraqqiyotining eng muhim mezonidir", degan yondashuv Kurashning milliy sport sifatidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kurashning texnik-taktik asoslari murabbiylardan yuqori metodik kompetentlikni, zamonaviy ilmiy yondashuvni, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Chunki bugungi sport fani sportchilarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy o'lchovlar asosida baholash, yuklamalarni nazorat qilish, texnik-taktik harakatlarni raqamli tahlil qilish, murabbiylik jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Raqamli sport" konsepsiyasi ham Kurash mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan rejalashtirish, texnik holatni monitoring qilish, video-tahlil dasturlaridan foydalanish, mashg'ulotlarni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirib bermoqda.

Mazkur maqola Kurashning texnik-taktik modeli, yosh sportchilarni tayyorlashdagi pedagogik yondashuvlar, mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar roli, sportchining jismoniy va ma'naviy kamolotiga ta'siri bo'yicha ilmiy tahlillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada jismoniy tarbiya tizimida Kurash mashg'ulotlarini yanada takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv Kurashni nafaqat musobaqaviy faoliyat sifatida, balki yuksak tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan kompleks tizim sifatida o'rganishga imkon beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kurash bo'yicha mavjud ilmiy-metodik manbalar, asosan, sportning texnik, taktik va pedagogik jihatlarni yoritishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, raqamli tahlil vositalari hamda yosh sportchilarning psixologik tayyorgarlik omillarini chuqur ochib beruvchi tadqiqotlar yetarli darajada emas. Xolmurodov A. va Qodirova M. (2021) tomonidan Kurash mashg'ulotlarida kasbiy va jismoniy tayyorgarlik tizimi o'rganilgan bo'lib, mualliflar murabbiylar faoliyatida rejalashtirilgan yuklamalar, bosqichma-bosqich tayyorgarlik modeli va texnik harakatlarni takomillashtirish tamoyillarini asoslab o'tadi. Biroq ular innovatsion texnologiyalarning amaliyotga jadal kirib kelayotgan zamon sharoitida Kurash mashg'ulotlarini raqamlashtirish, sportchi psixologik barqarorligini baholash, mashg'ulot jarayonini monitoring qilish kabi dolzarb masalalarni yetarli darajada yoritmaydi. Sharipov Sh. (2020) tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning qo'llanilishi tahlil qilingan bo'lsa-da, mazkur yondashuvlarning aynan Kurash sporti bilan bog'liq metodik modelga qanday integratsiya qilinishi masalasi ochiq qolmoqda.

Adolf V.A., Zubkov L. va Lebedeva O.V. kabi rus olimlarining metodik kompetentlikka oid ilmiy ishlari murabbiylarning kasbiy faoliyatida metodik savodxonlik, pedagogik kompetensiya va texnik-taktik tayyorgarlikni boshqarish ko'nikmalarining o'ta muhimligini ko'rsatadi. Ular tomonidan ilgari surilgan metodik kompetentlik modeli Kurash bo'yicha murabbiylar tayyorgarligini modernizatsiya qilishda nazariy asos vazifasini o'taydi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO, 2020) tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillari esa sportchi tayyorlash jarayonida kasbiy ko'nikmalar, kommunikativ savodxonlik, tanqidiy fikrlash, stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi universal kompetensiyalarning zarurligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ham Kurash mashg'ulotlarini ilmiy asoslashda muhim manba hisoblanadi. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Tolipov O. kabi pedagogika sohasidagi yetuk olimlar ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, pedagogik madaniyat va kasbiy kompetensiyaning o'rnini haqida chuqur ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Ularning ishlari Kurash mashg'ulotlarini modernizatsiya qilish, murabbiylar uchun metodik qo'llanmalar yaratish va trenirovka jarayonini pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy asoslashda muhim nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.



Shuningdek, Ziyomhammadov B., Usmonboyeva M., Rashidova G. kabi mahalliy tadqiqotchilar ta'lim jarayonida yangi metodlar, raqamli texnologiyalar, psixologik yondashuv va kompetensiyalarni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lib, ularning yondashuvlari Kurash sporti mashg'ulotlarini takomillashtirishda metodologik asos bo'la oladi.

Milliy sport sifatida Kurashning o'ziga xosligi shundaki, u faqat texnik harakatlar majmui emas, balki yosh sportchilarning jismoniy, psixologik va ma'naviy rivojlanishini bir butun jarayon sifatida ko'radigan murakkab pedagogik tizimdir. Shu sababli Kurash bo'yicha ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida nafaqat sport texnikasi, balki yosh sportchining psixik barqarorligi, musobaqa oldi va musobaqa jarayonidagi stressga chidamliligi, motivatsiya darajasi, irodaviy sifatleri va emotsional intizomi kabi omillar ham chuqur o'rganilishi lozim. Afsuski, hozirgi ilmiy manbalarning aksariyati ushbu psixologik jihatlarni yetarlicha qamrab olmaydi. Shu bois Kurash sportining zamonaviy metodik tizimini yaratishda o'zbek va xorijiy olimlarning pedagogika, psixologiya, sport treningi va innovatsion texnologiyalar bo'yicha ilg'or qarashlarini integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi, sportchilarning jismoniy sifatleri va pedagogik jarayonning samaradorligini ilmiy asosda baholashga qaratilgan kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali Kurashning texnik harakatlari, taktik model, mashg'ulot jarayoni strukturasi, yuklama periodizatsiyasi, yosh sportchilarning psixologik tayyorgarligi hamda innovatsion trening texnologiyalariga oid mahalliy va xorijiy manbalar o'rganildi. Xolmurodov, Qodirova, Abdulqodirov, Ishmuxevedov, Lebedeva, Zubkov va boshqa olimlarning ishlari metodik asos sifatida baholandi. Keyingi bosqichda 12 hafta davomida amaliy kuzatuvlar olib borilib, 14–16 yoshdagi 20 nafar yosh kurashchining mashg'ulot jarayoni muntazam qayd etildi: texnik bajarilish aniqligi, reaksiyaning tezligi, kuch va chaqqonlik yuklamalariga fiziologik javoblari, tiklanish davrlari, motivatsion holati diagnostika kartalari orqali kuzatildi.

Tadqiqotning asosiy bo'lagi sifatida 3 oylik pedagogik eksperiment tashkil etilib, maxsus ishlab chiqilgan "Integrativ texnik-taktik rivojlantirish dasturi" sportchilarga qo'llandi. Dastur haftasiga 4 marotaba mashg'ulotni o'z ichiga oldi: texnik takomillashtirish (40%), jismoniy sifatleri rivojlantirish (35%), taktik vaziyatli mashqlar (15%) va psixologik tayyorgarlik elementlari (10%). Eksperiment oldidan va undan keyin sportchilarning kuch (dynamometriya), chaqqonlik (10×10 yugurish), egiluvchanlik (bukti o'lchovi), tezkor kuch (sakrash testi), koordinatsiya (flamingo testi), hamda texnik mukammallik (murabbiylar tomonidan 10 ballik baholash tizimi) bo'yicha natijalari qayd etildi. Shu bilan birga, Kurashning Judo va Sambo turlari bilan texnik va taktik jihatdan solishtirma tahlil qilinib, ushlab olish dinamikasi, markazdan chiqarish momenti, yiqitish tamoyillari, oyoq harakatlarining qo'llanish chastotasi va musobaqa strategiyasidagi farqlar ilmiy mezonlar asosida taqqoslandi. Olingan barcha empirik natijalar Microsoft Excel va SPSS Statistics dasturlarida statistik qayta ishlanib, o'rtacha qiymat (M), dispersiya ( $\sigma^2$ ), farqlar ishonchiligi ( $p < 0.05$ ) aniqlanib, jadval va diagrammalar ko'rinishida rasmiylashtirildi. Shu tariqa, tadqiqotning metodologik yondashuvi Kurash mashg'ulotlari samaradorligiga ta'sir etuvchi jismoniy, texnik va psixologik omillarni kompleks ravishda baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida Kurash mashg'ulotlarining o'quv jarayoniga ta'siri, murabbiylar tomonidan qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar samaradorligi hamda yosh sportchilarning texnik-taktik rivojlanish dinamikasi tizimli tahlil qilindi. O'tkazilgan kuzatuvlar va pedagogik jarayon monitoringi mashg'ulotlarning muntazamligi, yuklamalarning to'g'ri taqsimlanishi, metodik ko'rsatmalarni aniq bajarish sportchilarning o'zlashtirish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

*Birinchidan*, mashg'ulotlar jarayonida sportchilarning texnik harakatlarni bajarish aniqligi va barqarorligi oshgani kuzatildi. Murakkab usullarni o'zlashtirish jarayonida dastlabki bosqichlarga nisbatan harakatlarni ketma-ketlikda bajarish, muvozanatni saqlash, raqib harakatiga moslashish qobiliyati yaxshilangani murabbiylar tomonidan qayd etildi. Bu esa texnik tayyorgarlikning sifat jihatdan rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

*Ikkinchidan*, mashg'ulotlarda qo'llanilgan pedagogik metodlar samaradorligi aniqlangan muhim jihatlardan biri bo'ldi. Interfaol yondashuvlar, amaliy ko'rsatmalar, harakat namunalarini vizual kuzatish, murabbiy va sportchi o'rtasidagi samarali muloqot sportchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirdi. Shuningdek, o'rganilgan usullarni takrorlash, bosqichma-bosqich murakkablashtirish texnik o'zlashtirish darajasining ortishiga yordam berdi.

*Uchinchidan*, mashg'ulotlarning muntazamligi sportchilarda intizom, o'z-o'zini boshqarish, diqqatni jamlash, musobaqaga psixologik tayyorlik kabi omillarning shakllanishiga xizmat qildi. Sportchilarning mashg'ulot jarayonida faolligi oshgani, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan mas'uliyati mustahkamlangani kuzatuvlar orqali tasdiqlandi. Bu pedagogik-psixologik tayyorlikning yaxshilangani bilan izohlanadi.

*To'rtinchidan*, murabbiylarning metodik kompetentligi mashg'ulot samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ldi. Metodik ko'rsatmalarni aniq berish, har bir sportchining individual imkoniyatlarini hisobga olish, xatolarni aniqlab bartaraf etish, texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o'rgatish mashg'ulotlarning sifatini oshirdi. Bu esa tajribali murabbiylarning ilmiy-metodik yondashuvni to'g'ri qo'llashi Kurash mashg'ulotlarining samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanini ko'rsatdi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, Kurash mashg'ulotlarining ilmiy asosda tashkil etilishi sportchilarda texnik, jismoniy va psixologik ko'nikmalarni kompleks shakllantirish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar bilan nazariy asoslarning uyg'unligi yosh sportchilarning o'quv va musobaqa tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligi aniqlangan muhim ilmiy xulosalardan biridir.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Kurash sport turi yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, vatanparvar va irodali qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Texnik-taktik mashqlar va psixologik tayyorgarlik uyg'un holda olib borilganda sportchilar rivojlanishining barqaror dinamikasi kuzatiladi.

Murabbiylar metodik kompetentligini oshirish, mashg'ulot jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish Kurashni yanada takomillashtirishning asosiy omillaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmurodov A., Qodirova M. Mehnat migratsiyasi jarayonida kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish tizimi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Sharipov Sh. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va pedagogik kompetentlik. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
3. Адолф В.А. Методик компетентность преподавателя. Москва: Просвещение, 2010.
4. Лебедева О.В. Методическая компетентность преподавателя в современной школе. Москва: Академия, 2011.
5. Зубков Л. Педагогическая компетентность и ее структура. СПб.: Питер, 2012. Ishmuxamedov R. Pedagogik madaniyat va innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
6. Ziyomhammadov B. Kasbiy kompetensiya va ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar. Toshkent: Ilmiy nashrlar, 2018.
7. International Labour Organization (ILO). Skills development and migration. Geneva, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5286-son qarori, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent: Adolat, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.